XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 7 - sentabr VI-59-77-11-154-K/23 Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Respublika ayerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona viloyati Buvayda tumani hud udidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra O‘zbekiston Respulikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika ayerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona viloyati Buvayda tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra tumanning umumiy peremetri **468363,91 metr,** tuman umumiy **maydoni 27908,86 gektar** ekanligi 1-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining mazkur qarori “Buvayda ko`zgusi” gazetasida hamda tuman hokimligining internetidagi rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyafa qarshi kurashish bo`yicha ” doimiy komissiyasi (A.Maxsudov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Odiljonovich I. B.**

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 7-sentabrdagi
VI-59-77-11-154-K/23-son qaroriga
1-ilova

Buvayda tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

MA’LUMOT

Shaharchalarning umumiy peremetri 93388,35 metr, umumiy maydoni 2483,34 gektar ekanligi aniqlandi.

Shu jumladan:

Buvayda shaharchasining umumiy peremetri 10760,45 metr, umumiy maydoni 289,64 gektar.

Zarbuloq shaharchasining umumiy peremetri 10511,23 metr, umumiy maydoni 368,35 gektar.

Ibrat shaharchasining umumiy peremetri 8887,07 metr, umumiy maydoni 264,46 gektar.

Quyi Bachqir shaharchasining umumiy peremetri 15121,41 metr, umumiy maydoni 393,03 gektar.

Quyi Urganji shaharchasining umumiy peremetri 6689,50 metr, umumiy maydoni 122,02 gektar.

Qum shaharchasining umumiy peremetri 7039,80 metr, umumiy maydoni 128,73 gektar.

Oqqo‘rg‘on shaharchasining umumiy peremetri 12105,00 metr, umumiy maydoni 337,37 gektar.

Chinobod shaharchasining umumiy peremetri 7720,77 metr, umumiy maydoni 193,37 gektar.

Yuqori Bachqir shaharchasining umumiy peremetri 7522,69 metr, umumiy maydoni 221,94 gektar.

Yuqori Nayman shaharchasining umumiy peremetri 7030,43 metr, umumiy maydoni 164,18 gektar.

Qishloq yerlarining umumiy peremetri 374975,56 metr, umumiy maydoni 25425,52 gektar ekanligi aniqlandi.

Shu jumladan:

Alqor qishlog‘ining umumiy peremetri 48599,19 metr, umumiy maydoni 5627,01 gektar.

Bekobod qishlog‘ining umumiy tashqi peremetri 44615,02 metr, ichki peremetri 7720,77 metr, umumiy maydoni 2465,90 gektar.

Beshterak (1-qsim) qishlog‘ining umumiy peremetri 28376,62 metr, umumiy maydoni 1346,39 gektar.

Beshterak (2-qsim) qishlog‘ining umumiy peremetri 15907,68 metr, umumiy maydoni 555,88 gektar.

Buvayda qishlog‘ining umumiy peremetri 40344,95 metr, umumiy maydoni 4227,94 gektar.

Jaloyir qishlog‘ining umumiy peremetri 20546,69 metr, umumiy maydoni 1330,21 gektar.

Qo‘ng‘irot qishlog‘ining umumiy peremetri 48322,90 metr, umumiy maydoni 3101,70 gektar.

Qo‘rg‘onobod qishlog‘ining umumiy peremetri 23262,04 metr, umumiy maydoni 1687,75 gektar.

Oqqo‘rg‘on qishlog‘ining umumiy tashqi peremetri 39764,89 metr, ichki peremetri 7030,43 metr umumiy maydoni 1750,31 gektar.

Yangiqadam qishlog‘ining umumiy peremetri 22634,00 metr, umumiy maydoni 1884,48 gektar.

Yangiqo‘rg‘on qishlog‘ining umumiy peremetri 30850,37 metr, umumiy maydoni 1448,93 gektar.

Xalq deputatlari Buvayda tuman
Kengashining
2023-yil 7-sentabrdagi
VI-59-77-11-154-K/23-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2023-yil 24-iyuldagi “Buvayda tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida ”gi

normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi yuzasidan

M A ‘ L U M O T N O M A

06.09.2023 yil qishlog`i — Yangiqo`rg`on

Xalq deputatlari Buvayda tuman kengashining **2023-yil 24-iyuldagi “Buvayda tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida ” gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi o`rganib chiqildi.

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Respublika ayerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona viloyati Buvayda tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko‘ra ishlab chiqilgan.

Xalq deputatlari Buvayda tuman kengashining **2023-yil 24-iyuldagi “Buvayda tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida”gi** normativ xususiyatga ega bo`lgan qarori loyihasi Adliya Vazirligi tomonidan 18.11.2021 yilda 3333-raqam bilan ro`yxatdan o`tkazilgan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish,yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o`tkazish qoidalarini tasdiqlash to`g`risida”gi 15.11.2021 yildagi 19-mx sonly buyurug’i va qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan deb hisoblayman.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi “O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy sora-tadbirlar to`g`risida”gi qarorining 4-bandiga asosan normativ huquqiy hujjatlar loyihasi tuman hokimligi tomonidan 41.07.2023 yilda O`zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o`tkazilishi uchun joylashtirilgan. Qaror loyihasida jamoatchilik muhokamasi natijalari e’tiborga olingan.

Xalq deputatlari Buvayda tuman kengashining mazkur qarori qabul qilinishidan oldin O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yildagi O’RQ-682-sonli “Normativ huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 26-moddasiga ko`ra Xalq deputatlari Buvayda tuman kengashining normativ tusga ega bo`lgan ushbu qarori loyihasini qonunchilik talablariga muvofiq ekanligi yuzasidan huquqiy ekspertizadan o`tkazishlik uchun Buvayda tumani Adliya bo`limiga taqdim etish lozim bo`ladi.

Loyiha O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq.

Buvayda tumani hokimligi yuriskonsulti B.Raxmonov

Buvayda tuman adliya bo`limi boshlig`i N.Ismoilovga

Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining 2023-yil 24-iyuldagi “Buvayda tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida”gi qarori loyihasini O`zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yuidagi “Normativ huquqiy xujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 26-moddasiga asosan

huquqiy ekspertizadan o`tkazib berishingizni so`rayman.

Buvayda tuman hokimi **B.Ibragimov**